RAQAMLI IQTISODIYOT - KORXONALAR IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Tolegenov Atabek Marat-uli
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali
Raqamli iqtisodiyot fakulteti talabasi
+998907352004
superatabekt@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda raqamli iqtisodiyotning muhim qirralari yoritib berilgan.

Kalit so'z: Iqtisodiy tahlillar, global pandemiya va raqamli iqtisodiètning, Sun'iy aql sohasi, ilmiy tadqiqot markazlari.

Bizga ma'lumki, dunyo iqtisodiyotida sanoat industriyasining rivojlanishi bir qancha bosqichlardan iborat bo'lib kelgan. Zamonaviy globallashuv davrida raqamli iqtisodiyot va texnologiyalar, kiberfizik va raqamli ishlab chiqarishga asoslangan Industry 4.0 tizimi rivojlanib bormoqda. Bu tizim ishlab chiqarish qiymati zanjirini yaratishni o'zida mujassamlashtiruvchi raqamlardan iborat bo'lgan tizimdir. Ma'lumotlarda keltirilishicha. Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2019 yilda jahon bozorida Industry 4.0 tizimi 71,7 milliard dollarni tashkil etib, bu o'tgan yilga nisabatan 17 foizga o'sgan. Iqtisodiyotning shiddat bilan o'sib borishi, 2019-2020 yillarda kuzatilgan global pandemiya va raqamli iqtisodiètning iqtisodiyot tarmoqlariga kirib borishi hamda axborotlarga asoslangan iqtisodiyotning hukmronlik qilishi korxonalar oldiga yangi innovatsiyalarni joriy etishni taqozo qilmoqda[1]. Jahon ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan o'tkazilgan so'rovnomaga ko'ra, yetakchi kompaniyalar bugungi kunda raqamlashtirish korxona iqtisodiy faolligini oshirishga katta imkoniyatlar eshigi ochaètganligi, shuning bilan birga korxonaning raqamlashtirilishiga va iqtisodiy xarajatlarning qisqarishiga hamda sifat jihatdan mahsulot ishlab chiqarish samraadorligining oshishiga olib kelayotganligi ta'kidlanadi[2].

Mavjud korxonalarning ishlab chiqarish jarayonida innovatsion muhit sharoitini yaratish, axborot texnologiyalarga asoslanib kompleks robotlashtirish korxonada faoliyat yuritayotgan ishchi kuchiga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Sun'iy aql sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar va amalga oshirilayotgan tadqiqotlar Industry 4.0'ning to'liq amalga oshishini tobora reallikka yaqinlashtirmoqda. Sun'iy aqlning o'zi esa Industry 3.0'ning yakuni va Industry 4.0'ning asosi sifatida baholanmoqda. Ishlab chiqarish jarayonini raqalashtirish ishlab chiqarish unumdorligini sifat jihatdan yaxshilanishiga, sarf xarajatlarning qisqarishiga va korxona raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladigan muhim omil sirasiga kirib bormoqda.

Ishlab chiqarish sarf xarajatlarining kamayishi qator jarayonlarning sinxronlashtirish imkonini beradi, masalan kalendar yilida ishlab chiqarishni rejalashtirish, korxona ichki ma'lumotlarini bir tizimga keltirish, iste'mol talabining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirishga orlib keladi. Ishlab chiqarish jaraènida xarajatlarning bunday optimallashtirish iqtisodiy faollikni oshiradi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Shuningdek, korxonaning raqamli texnologiyalardan samarali foydalanib ishlab chiqarishni qo'llab quvvatlanishi uning yangi biznes modelini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Albatta, maksimal foydaga erishish uchun

[1] Веселовский М.Я., Никонорова А.В. Управление инновационным процессом и особенности внедрения инноваций// Вопросы новой экономики. 2014. №2(30). С. 60-67.

[2] Digital-factories-2020-shaping-the-future-of-manufacturing [Электронный ресурс] https://www.pwc.de/de/digitale -transformation/digitalfactories-2020- shaping-the-future-of-manufacturing.pdf.

ishlab chiqarishni tashkil etishdan tortib mahsulotni iste'molchiga yetkazish jaraèniga qadar davom etadigan zanjirsimon raqamli texnologiyali biznes jarayonda yaratilaètgan qiymatninazorat ostiga olish zarur bo‘ladi4 .Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi axborotkommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xolda, odatda turli ko‘rsatkichlar bilan baholanadi.

Ushbu ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat: raqamli iqtisodiyotning YIMdagi ulushi, AKT sanoatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi, Internet tezligi, uning mamlakat hududini qamrab olishi va aholi foydalanishi uchun qulayligi, elektron tijoratning rivojlanish darajasi, ―Elektron hukumat‖ tizimidagi davlat xizmatlari ulushi, AKT sohasidagi mutaxassislar bilan tashkilotlarning ta'minlanishi va boshqalar.

Bundan tashqari, mamlakatda axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasini baholaydigan xalqaro reytinglardagi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyatga ega. 1-rasmda O‘zbekiston Respublikasida 2016 yildan 2021 yilgacha iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar va axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o‘sish tendensiyasi keltirilgan.Mazkur ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo‘lsak, iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2016 yilda 26048 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilga kelib 36726 tani tashkil etgan. Albatta bunday o‘sish tendensiyasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan oqilona investitsiya siyosati hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatning davlat va jamiyat rivojlanishi istiqbolini strategik rejalashtirish tizimiga sifat.jihatdan yangi yondashuvlarni boshlab berganligi bilan tavsiflanadi. Mamlakatimizda investitsiya muhiti yaxshilangani natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalar faol kirib kelmoqda. Xususan, 2018 yilning besh oyida 776 ta yangi qo‘shma va xorijiy korxona ro‘yxatdan o‘tkazildi. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 496 taga ko‘pdir. Shuningdek, joriy yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokida 377 ta hududiy va 148 ta tarmoq loyihalari bajarilishi belgilandi.Shunday qilib, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan milliy hamda xorijiy korxonalarning investitsiya faoliyati natijalari aks etgan hisobotlari xalqaro standartlar darajasida, haqqoniy va shaffofligi ta'minlangan holda shakllantirilmoqda. Bu mamlakatimizda biznes yuritish muhitini yaxshilash bilan birga, tadbirkorlar manfaatini ham oshirmoqda. Bular xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan investitsiya faoliyatini samarali yuritish bo‘yicha strategik rejalashtirish va tahlilini yuritish vazifalarini belgilab berdi. Mazkur vazifalar korxonalar investitsiya faoliyati natijadorligini oshirish, ushbu faoliyatning tahlil mexanizmlarini takomillashtirish, uning xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi o‘rnini kuchaytirish hamda investitsiya faoliyati tahlilining uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Веселовский М.Я., Никонорова А.В. Управление инновационным процессом и особенности внедрения инноваций// Вопросы новой экономики. 2014. №2(30). С. 60-67.

2.Digital-factories-2020-shaping-the-future-of-manufacturing [Электронный ресурс] https://www.pwc.de/de/ digitale -transformation/digitalfactories-2020- shaping-the-future-of-manufacturing.pdf.

3.Морозов М.А., Морозова Н.С. Ключевые факторы конкурентоспособности в условиях цифровой экономики. В сборнике: Теория и практика развития предпринимательства: современные концепции,цифровые технологии и эффективная система. Материалы VI Международного научного конгресса. Под научной редакцией А.В. Шарковой, О.Н. Васильевой, Б. Оторовой. 2018. С. 380-383.

4. Развитие предпринимательства: концепции, цифровые технологии, эффективная система. Монография. - М.: Дашков и К.- 2019. – 605 с

5. Тухтаев З.Э.ШАГИ ПО ПОВЫШЕНИЮ ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ. 691-694. "Экономика и социум" №5(96)-1 2022. www.iupr.ru

6.Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари.